Sanoat korxonalarining strategik iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash	988
<i>Uktamov Xusniddin Faxriddinovich</i>	
Tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi	992
<i>Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich</i>	
Tadbirkorlik muhiti tahlili va uni davlat tomonidan tartibga solish shart-sharoitlari	997
<i>S. T. Toshaliyeva, A. M. Abduraxmonov</i>	
Учет поступления и списания с учета основных средств в бюджетных организациях	1002
<i>Абдуллаева Нилуфар Джавдат кизи</i>	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	1007
<i>Sa'dullayeva Asalxon Muzaffarovna</i>	
Davlat budgetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo'llar.....	1010
<i>O'ktamova Nargiza Narzulla qizi</i>	
Sog'liqni saqlash tizimini davlat tomonidan moliyalashtirishning zaruriyati.....	1014
<i>Meliyev Azimjon Murodullo o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda ichki audit xizmatining zarurligi	1019
<i>Shaymatova Nargiza Ashurovna</i>	
Hududlarda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy asoslari.....	1024
<i>Tangriberdiyev Sulaymon Kamiljonovich</i>	
Tadbirkorlikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning nazariy va uslubiy tamoyillari	1030
<i>Farxodjon Inamov</i>	
Xitoy iqtisodiyotidagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar	1037
<i>Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li</i>	
Экономический механизм государственного регулирования транспортной системы.....	1043
<i>Саримсакова Малоҳат Ҳикматуллаевна</i>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili	1046
<i>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</i>	
Korxonalar faoliyatiga innovatsion marketingni joriy etish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....	1052
<i>Fatilloyev Farrux Farhod o'g'li</i>	
Tog' turizmini rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari	1056
<i>Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li</i>	
Qashqadaryo viloyatida kambag'allik darajasini iqtibolda qisqartirish yo'nalishlari.....	1062
<i>Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li</i>	
O'zbekistonda iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirishning yo'nalishlari	1068
<i>Saidova Dildora Nurmatova, Murodov Jahongir Husan o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li</i>	
Chakana savdo korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish	1071
<i>Sobirov Azizbek Avazbekovich</i>	



CHAKANA SAVDO KORXONALARINI INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sobirov Azizbek Avazbekovich

TDIU “Marketing” kafedrasi PhD. dotsent



Annotatsiya: Maqolada chakana savdo korxonalarini integratsiyalashuv shakllari tasniflangan. O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan chakana savdo korxonalarini integratsiyalashning 3 ta asosiy shakldan foydalanish tavsiya etilgan. Chakana savdo korxonalarining integratsiyalashuv shakllarini tanlash bo'yicha ekspert baholash amalga oshirilib, har bir shakl bo'yicha samaradorlikni ta'minlovchi omillar tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: savdo, chakana savdo, integratsiya, gorizontal integratsiya, vertikol integratsiya, autsorsing, ulgurji savdo, ekspert baholash usuli, kompetentlik, konkordatsiya koeffitsiyenti.

Abstract: The article classifies the forms of integration of retail enterprises. It is recommended to use 3 main forms of integration of retailers operating in Uzbekistan. An expert evaluation of the choice of forms of integration of retail enterprises was carried out, for each form the factors that ensure efficiency were systematized.

Key words: trade, retail trade, integration, horizontal integration, vertical integration, outsourcing, wholesale trade, expert evaluation method, competence, concordance coefficient.

Аннотация: В статье классифицируются формы интеграции предприятий розничной торговли. Рекомендуется использовать 3 основные формы интеграции предприятий розничной торговли, действующих в Узбекистане. Проведена экспертная оценка выбора форм интеграции предприятий розничной торговли, для каждой формы систематизированы факторы, обеспечивающие эффективность.

Ключевые слова: торговля, розничная торговля, интеграция, горизонтальная интеграция, вертикальная интеграция, аутсорсинг, оптовая торговля, метод экспертной оценки, компетентность, коэффициент соответствия.

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Xaridorgir mahsulotlar turlarini aniqlash, ularga bozor topish va sotish bilan xususiy treyding kompaniyalari shug’ullanishi, buning uchun esa, savdo faoliyatini tartibga soladigan qonun loyihalari to’plamini ishlab chiqish lozim”ligi, bu tashqi savdo bilan bir qatorda, ichki bozorga ham tegishli ekanligi^[1] 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo’lgan 4-eng muhim dasturiy va maqsadli vazifalar sifatida belgilab berildi.

Mazkur vazifalar chakana savdoni korxonalarini iste’mol tovarlari bozoriga samarali integratsiyalashuni ta’minalash va uni iste’mol tovarlari bozorini tartibga solishdagi asosiy rolini belgilash asosida hal etish imkonini mavjud.

Respublikada iste’mol tovarlari bozorida rivojlanayotgan raqobat, mahalliy va import tovarlardagi tarkibidagi o’zgarishlariga mos holda chakana savdo korxonalarini rolini oshirish, raqamli iqtisodiyoti sharoitida chakana savdoni boshqarishning shakl va usullarini takomillashtirishga yordam alohida e’tibor qaratilmoqda. Chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligi ularning iste’mol tovarlari bozoriga samarali integratsiyasi holati bilan belgilanadi va integratsiya strategiyasi alohida o’rein tutadi. Bu esa, xizmat ko’satish sohasida korxonalarning raqobat ustunliklarini ta’minalash, bozorda barqaror turish va mavqeini oshirish hamda investitsiyalarini jalb qilish uchun asosiy omil hisoblanadi. Yuqoridaqilarni hisobga oligan holdda, O’zbekistonda chakana savdoning qariyb 90 foizni kichik va o’rtacha biznes bilan bog’liq bo’lganligi uchun integratsiya strategiyalaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki iqtisodiyot sohalarida integratsiya strategiyasining ikki turi ajratilgan, ya'ni vertikal integratsiya strategiyasi va gorizontal integratsiya strategiyasi^[2]. Savdo sohasida vertikal integratsiyani amalga oshirishning tarkibi asosan ulgurji va chakana savdo korxonalarining integratsiyasiga asoslangan uyushmalarining tashkil etilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, integratsiyaning ushbu shaklida ustunlik ulgurji savdo hisoblanadi. Teskari vertikal integratsiyaning salbiy tomoni bu chakana sotuvchilar tomonidan iqtisodiy mustaqillikning yo'qolishidir^[3].

Iqtisodiyotdagi progressiv o'sishlar bir-biriga o'xshash savdo tizimlarini shakllanishiga zamin yaratmoqda. Barcha mamlakatlarda savdo tarmoqlari tushunchasi bilan ifodalanadigan yirik savdo tarmoqlarining shakllanishi esa integratsiyalashuv zamonaviy yo'nalishidir^[4]. Bu murakkab ichki tashkiliy, boshqarish va tarqatish xususiyatlariga ega bo'lgan korxonalarining tarmoqlararo birlashmalaridir. Ulardagi iqtisodiy tizimni tashkil etuvchi elementlariga ishonchli tarzda kiritish mumkin, chunki ular bozor, ishlab chiqarish va iste'mol, jamiyat va hokimiyat vertikaliga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Strategik boshqarish nazariyasida ular "yaxlit tuzilma" tushunchasini oldilar^[5]. Fikrimizcha, chakna savdo biznesiga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatadigan turli xil tuzilmalar va korxonalar tizimini biz "integratsiyalashgan savdo tizimlari" deb qaralishi maqsadga muvofiq.

Integratsiyalashgan savdo tizimi – bu asosan savdo sohasida faoliyat yuritadigan va bozorda ixtisoslashuv, resurslar va pul oqimlarini yagona iqtisodiy mexanizmga taqsimlash orqali o'zaro bog'liq bo'lgan (birlashtirilgan) ko'plab texnologik jihatdan birlashtirilgan savdo obyektlari tomonidan namoyish etiladigan ko'p tarmoqli tijorat tashkilotidir^[6].

Savdo korxonalarining asosiy o'zgarishi tendensiyasi 19-asrda boshlarida gorizontal integratsiyalashuv asosida ko'plab savdo kanallarini shakllantirish edi. Keyingi asosiy evolyutsion jarayon esa "Chakana savdo tarmog'i" tushunchasining paydo bo'lishi va bugunga kelib iqtisodiyotning asosiy kategoriyasiga aylanishidir. Biroq XX asrning 50-yillardan boshlab, savdo obyektlarini birlashtirish, ulardan texnologik yechimlar bilan bog'langan, korxonalarining murakkab tizimini tashkil etish amaliyoti keng yanada kengroq qo'llanilmoqda^[7].

Gorizontal integratsiya chakana savdo korxonalarining kooperatsiyasi shaklida amalga oshiriladigan tuzilmani tashkil etishni nazarda tutadi. Bunday birlashmalarni markazlashtirilgan xarid qilish tizimi, omborxonalarni tashkil etish, yagona marketing siyosatini amalga oshirish maqsadida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu ulgurji sotuvchidan va boshqa chakana savdo korxonalaridan iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lish, taqsimot kanallari bo'yicha xarajatlarni kamaytirish, kelgusida o'sishi uchun sharoit yaratish va sinergistik samarani ta'minlash imkonini beradi.

Gorizontal integratsiyadagi sinergiya – bu ikki yoki undan ortiq tashkilot bitta tuzilmada birlashganda yuzaga keladigan strategiya samarasidir^[8]. Fikrimizcha, chakana savdo korxonalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda gorizontal integratsiya strategiyasini tanlash O'zbekiston Respublikasi uchun eng maqbul yo'ldir.

O'zbekistonda chakana savdoni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'nalish sifatida gorizontal integratsiya strategiyalaridan foydalanish raqobatdosh subyektlarning bitta strategik guruhi uchun amalga oshirilishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bitta strategik guruhi tarkibidagi savdo integratsiyalashgan tuzilmalari chakana savdo korxonalarining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish maqsadiga yega bo'lishi kerak, degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqoridagi yo'nalishlarga asoslanib, integratsiyalashgan tuzilmalanning quyidagi tashkiliy shakllari taklif etiladi:

- 1-shakl. Chakana savdo korxonalarini ulgurji savdo korxonalariga tarkibida ixtiyoriy integratsiyalashuv shakli;
- 2-shakl. Chakana korxonalarini yagona ta'minotchi korxonalar tarkibida gorizontal integratsiyalashuv shakli;
- 2-shakl. Chakana savdo korxonalarini autsorsing asosida integratsiyalash.

Chakana savdo korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda taklif etilgan 3 ta integratsiyalashgan tuzilmalarga kirishi uchun jami 9 ta omil bo'yicha samaradorligini ekspert baholash asosida aniqlanadi. Boshqaruv samaradorligi bo'yicha tanlangan 9 ta omillar quyidagilar: ta'minot tizimi, assortment, narxlashtirish, logistika, marketing, axborot tizimi, boshqaruv, nazorat tizimi, moliyalashtirish tizimi.

METODOLOGIYA

Taklif yetilgan integratsiya shakllarining chakana savdoni boshqarish nuqtayi nazaridan samaradorligini aniqlash maqsadida ekspert baholash ausulidan foydalanish tavsiya etiladi. Har bir taklif yetilgan integratsiyalash shakli bo'yicha omillar asosida 5 ballik tizim asosida baholashni amalga oshiriladi: ta'minot tizimi, assortment,



tovar sifati hududiy iste'molchilarga nomuvofligi, narxlashtirish, logistika, marketing, axborot tizimi, boshqaruvi, nazorat tizimi, moliyalashtirish tizimi, boshqaruva chakana savdoning ishtiroti, chakana savdo korxonalarining o'zaro hamkorligi. Omillarning ahamiyatliliği ekspertlar tomonidan quyidagi me'zon bo'yicha baholanadi:

- 1 – umuman ahamiyatsiz;
- 2 – qisman ahamiyatli;
- 3 – ahamiyatga ega;
- 4 – ahamiyatli;
- 5 – muhim ahamiyatga ega.

Ekspertlar chakana savdo korxonalarini rahbarlari va tijorat faoliyati sohasidagi mutaxassislar bo'lishi talab etiladi. Muayyan integratsiya shaklini qo'llash samaradorligini ekspert usuli asosida baholashda asosan eksperimentlarni tanlash va ularning kompetentligik darajasini baholash, ekspertlarning kelishuvchanlik jarajalarini baholashga ahamiyat qaratiladi. Ekspertlar guruhi ulgurji va chakana savdo korxonalarida faoliyat yuritayotgan menejerler tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ilmiy tadqiqotlarda ekspertlar guruhini 7 tadan 20 tagacha bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi [9]. Shunga asoslangan holda tadqiqotda ishida 10 ta ekspertlardan foydalaniladi.

Ekspert baholashni samarali amalga oshirish maqsadida SPSS Statistics 22 paket dasturi "NPART TESTS" buyrug'idan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu dasturiy paket ekspert baholash natijalarini aniqlashda va natijalar ishonchligini tekshirishda qulay hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ulgurji savdo korxonasi tarkibida chakana savdo korxonalarining ixtiyoriy integratsiyasi do'konlari, supermarketlarning rivojlanishi uchun qulay tashqi muhitni yaratish uchun ulgurji savdo korxonalarini bilan doimiy aloqasini shartnomaviy munosbatlar asosida integratsiyalashni nazarda tutadi. Tavsiya etilgan tashkiliy tuzilma – bu yakka tartibda emas, balki integratsiyalashgan guruhlashda xo'jalik yurituvchi subyektlarni shartnomaga asosida birlashtiradigan va iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi shartnomaga tizimiga ega bo'ladi.

Har bir savdo kompaniyasi katta tranzaksion xarajatlarga ega, chunki bir nechta ulgurji savdo korxonalarini bilan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishga majbur bo'lib, ularning har biri asosan tovarlarning ma'lum guruhlarini sotadi, bu esa tovarlarni tashish narxini va shunga mos ravishda narxlarning oshishiga ta'sir qiladi.

Integratsion birlashma ulgurji savdo korxonalarini tashabbusi bilan tashkil etilib, taklif etiladigan strategik dastur asosida chakana savdo korxonalariga ma'lum imtiyozlar beradi, bu esa raqobatbardoshlikni oshirishga imkon beradi.

Integratsion guruhlash quyidagi funksiyalarni bajarishi mumkin: axbrotlar bilan ta'minlash, assortimentdan maksimal darajada foydalanish, logistika xizmatlarini ko'rsatish, ombor xo'jaligi va hisob-kitoblarni tartibga solish va boshqalar.

Integratsiyaning sinergiyasi: tranzaksiya xarajatlarni kamaytirish, xarid qilish-sotish va yangi tajribani tarqatish jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash, tovarlarni taqsimlash xarajatlarini pasaytirish, savdo bozorlarini kengaytirish va tovarlarga narxlarni tushirish imkoniyati.

Chakana korxonalarini yagona ta'minotchi korxonalar tarkibida gorizontal integratsiyalashuv shakliga asoslangan boshqaruvi shakliga ega bo'ladi, uning maqsadi shartnomaviy munosabatlari ixtiyorilik prinsiplari asoslanadigan ta'minot va logistika xizmatlarini optimallashtirishdir.

Integratsiya ishtirokchilar hisoblangan chakana sado korxonalarini uchun yetkazib berish markazlashgan holda amalga oshiriladi, foyda esa ular o'tasida xarid hajmiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Xarid qilish imkoniyati integratsiyaga kirmaydigan, ammo foya olish huquqini bermaydigan chakana sotuvchilarga taqdim etilishi mumkin. Ushbu strategiyada chakana sotuvchilar o'tasidagi munosabatlari o'zaro manfaatlarga erishishga qaratilgan raqobatda ustunlikni yaratishga qaratilgan boshqaruvdir. Ushbu boshqaruvi strategiyasining asosida chakana savdo korxonalarini o'zaro munosabatlarga asoslangan raqobatda ustunlikni ta'minlash siyosati yotadi. Bundan boshqaruvdagagi asosiy muammo ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirishdir.

Chakana savdo korxonalarini autsorsing asosida integratsiyalashda autsorsing shartnomaga asosida korxonaning uzluksiz ishlashini professional ravishda qo'llab-quvvatlash uchun ma'lum bir funksiyani shartnomaga asosida bir kompaniyaga boshqasiga topshirishdan iborat. Iqtisodiy samara – bu iqtisodiy resurslarning bir qismini bo'shatish qobiliyati, bu ularni savdo faoliyatini takomillashtirish va taqsimot xarajatlarini kamaytirish uchun ushbu funksiyalar bo'yicha ixtisoslashgan boshqa korxonaga yo'naltirishga imkon beradi.

Uyushma a'zolari turli muammolar bilan shug'ullanadigan tuzilmalarni yaratadilar. Shu maqsadda, autsorsing xizmatlarini ko'rsatadigan ma'suliyati cheklangan jamiyat sifatida autsorsing markazini tashkil etish



tavsiya etiladi. Integratsiyaning asosiy maqsadi chakana sotuvchilarni tovarlar bilan ta'minlashdagi xarajatlarni minimallashtirishdir.

Chakana savdo korxonalariga markazga quyidagi vazifalarni hal etish tavsiya etiladi: buxgalteriya hisobi va statistik hisob yuritish, uyushma a'zolariga tovarlar, ekspeditorlik xizmatlari, innovatsion texnologiyalar, axborot va yuridik xizmatlarni joriy etish va h.k.

Yuqoridagi funksiyalarning bajarilishi ko'plab muammolarni, asosan, kadrler bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam beradi, xususan, chakana savdo korxonalarini o'ziga xos muammolarni hal qila oladigan yuqori malakali mutaxassislarni jaib etish doimiy muammodir. Uyushma moliyaviy muammolarni qisman hal qila oladigan qo'shma fondlarni yaratishi va konsolidatsiyalangan tuzilma sifatida taqdim etilishi mumkin, bu esa moliyaviy muassaslar bilan ishslash tizimi samaradorligini oshiradi. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, integratsiya tuzilmasi chakana savdo tarmog'ida savdo va texnologik jarayonni tashkil etish xarajatlarini kamaytiradi, boshqaruv funksiyalari sifatini yaxshilaydi va tovarlarni yetkazib berish va sotishda xatarlarni kamaytiradi.

Chakana savdo korxonalarining integratsiyalash shakllari bo'yicha ekspertlar tahlil jami 10 ta ekspertlar tomonidan 5 balli tizim asosida baholash natijari bo'yicha xar bir omilning modasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Chakana savdo korxonalarining integratsiyalash shakllari bo'yicha ekspertlar tahlil uchun tanlangan omillar tasnifi

Ko'rsatkichlar	X	1-shakl					2-shakl					3-shakl				
		1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
Ta'minot tizimi	1				*					*		*				
Assortiment	2	*							*							*
Narxlashtirish	3	*							*					*		
Logistika	4				*				*					*		
Marketing	5					*		*								*
Axborot tizimi	6			*		*										*
Boshqaruv	7				*		*						*			
Nazorat tizimi	8		*							*						*
Moliyalashtirish tizimi	9				*	*										*

* – ekspertlardan olingan natijalar bo'yicha moda

Ekspert tahlil uchun 10 ta tanlangan ekspertlar tomonidan olingan natijalar SPSS Statistics 22 paket das-turi "NPAR TESTS" buyrug'i asosida natijalar olindi. Unda integratsion shakllarning har biri bo'yicha belgilangan omillarga ko'ra ahamiyatlik natijalari xar bir shakl bo'yicha alohida hisoblab, 2-jadval ma'lumotlari olindi.

2-jadval: Ekspert baholash natijalari

Omillar	1-shakl bo'yicha rang	2-shakl bo'yicha rang	3-shakl bo'yicha rang
Ta'minot tizimi	7,25	8,55	2,65
Assortiment	2,85	6,05	6,40
Narxlashtirish	2,05	5,40	4,25
Logistika	7,20	5,10	2,40
Marketing	4,85	4,45	6,50
Axborot tizimi	4,95	2,40	2,70
Boshqaruv	5,60	2,90	6,20
Nazorat tizimi	2,80	7,60	7,25
Moliyalashtirish tizimi	7,45	2,55	6,65
Har bir shakl bo'yicha ekspert baholash natijalari testi			
N	10	10	10
Xi-kvadrat	51,861	54,736	46,944
st.sv.	8	8	8
Asimptoticheskaya znachimost	0,000	0,000	0,000
Kendall - W	0,648	0,684	0,587



1-jadval ma'lumotlariga ko'ra ekspertlarning kompitentlik darajasi SPSS Statistics 22 paket dasturiga ko'ra Fridman testi natijalari asosida (χ^2 -kvadrat) qabul qilinadi. Fridman testi takrorlanuvchi ikki omilli dispersion tahsiliga asoslanadi va har bir kuzatilayotgan omillarni bo'yicha ekspertlar baholarini 1 dan katta qiymatlar asosida zanjirlaydi.

Ekspert so'rov usulida "ekspertlar fikrining kelishuvchanligi" juda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi yuqori bo'lsa, u holda ekspert so'rovi natijalari yuqori bo'ladi. Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasini baholash bo'yicha "konkordatsiya koeffitsiyenti" hisoblanadi. Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi Kendall (W) qiymati 0 va 1 oralig'ida o'zgarib turadi. Agar konkordatsiya koeffitsiyentning qiymati qanchalik birga yaqinlashsa, ekspertlar fikring kelishuvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi. 1-jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'lmoqdaki ekspertlar fikrining kelishuvchanlik jarajasi o'rta darajada va olingen natijalarni qabul qilish mumkinligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekspet baholash natijalari chakana savdo korxonalarini integratsiyalashgan tuzilmalari bo'yicha aniqlashda eng muhim omillarni ajratish imkonini beradi. Natijalardan ma'lumki, ulgurji savdo korxonasi tarkibida chakana savdo korxonalarining ixtiyoriy integratsiyalash (1-shaklda) chakana savdo tarmoqlari uchun samarali ta'minot tizimini shakllantirish, logistika, moliyalashtirish tizimi bo'yicha yuqori ustunliklarga ega bo'ladi.

Chakana korxonalarinng yagona ta'minotchi korxonalar faoliyatiga gorizontal integratsiyalashuvni (2-shaklda) natijasida Ta'minot tizimi assortiment, nazorat tizimi va logistika bo'yicha sinergiyani ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

Fikrimizcha, chakana savdo korxonalarini autsorsing asosida integratsiyalash eng maqsadli strategiya sifatida qaralishi lozim. Ushbu shaklda integratsiyalashuv chakana savdo korxonalari uchun yuqori raqobat ustunliklарini ta'minlash imkonini beruvchi Assortiment, Marketing, Boshqaruv, Nazorat va Moliyalashtirish tizimini samarali yo'liga qo'yishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. Хлопенко О.В. Формирование конкурентоспособности предприятий сферы услуг розничной торговли: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.05 / Хлопенко Оксана Валерьевна. – Ростов -на - дону, 2012. – 209с.
3. Ниёзов Д. Совершенствование системы управления конкурентоспособностью предприятий розничной торговли в условиях рыночной экономики (на примере Согдийской области Республики Таджикистан). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Душанбе – 2018.
4. Чеглов В.П. Влияние розничных торговых сетей на социально – экономические параметры функционирования регионов // Менеджмент и бизнес-администрирование. – М.: Экономическая газета, 2013. №4. – С. 137–147.
5. Винслав Ю.Б., Касатов А.Д. Интегрированные корпоративные структуры: системная характеристика особенностей экономических методов управления // Менеджмент и бизнес администрирование, 2012. №2. – С. 121–135.
6. Чеглов В.П. Теоретико-методологическое обоснование применения категории "интегрированная торговая система" при анализе процессов трансформации торговли в России // Российское предпринимательство, 2015, Т. 16. №11. – С. 1679–1687.
7. Чеглов В.П. Иновационный ритейл. Организационное лидерство и эффективные технологии: Монография. — М.: Форум, 2014. — С. 40-98.
8. Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление / Р.А. Фатхутдинов. – М.: ИНФРА-М. –2000. –С. 212.
9. S.O.Xomidov. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash bo'yicha qarorlar qabul qilishda ekspertlar usulidan foydalanish uslubiyoti. Iqtisodiyot va moliya ilmiy-amaliy jurnal. –2019, 4(124). 16-24 betlar.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.